



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

O‘ZBEK TILIDA KO‘MAKCHILARNING ILMIY TALQINLARI VA TASNIFLANISHI

Muxtorov Abdumalik Egamberdiyevich
SamDCHT o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola o‘zbek tilidagi ko‘makchilarning ilmiy talqinlari, xususiyatlari, kelishiklar bilan sinonimlik hodisalari, o‘zbek tilshunosligida ko‘makchilarning ma‘nodoshlik tahlili, ko‘makchilarning semantik-sintaktik xususiyatlariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: ko‘makchilar, qo‘shimchasimon ko‘makchilar, sof va vazifadosh ko‘makchilar, morfema, yordamchi so‘zlar kategoriyasi.

Tilimizdagi ot va otlashgan so‘zlardan oldin kelib, ularni boshqa so‘zga (ko‘pincha fe‘lga) grammatik jihatdan tobelanishini ta‘minlaydigan yordamchi so‘zlar ko‘makchilardir. Ko‘makchilar nutqda o‘zidan oldingi ot va otlashgan so‘zlarga vosita, maqsad, sabab, payt, makon kabi ma‘no munosabatlari orqali birikib, ular bilan bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Shu xususiyatiga ko‘ra, kelishiklarning vazifadoshlari hisoblangan ko‘makchilar kelib chiqish asosiga ko‘ra: sof (*bilan, uchun, kabi, singari, uzra, sayin. qadar*), vazifadosh (*tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qarab, qaramay, so‘ng, tashqari, beri, ko‘ra, chog‘li*) va qo‘shimchasimon (*-day, -dek, -gacha*) ko‘makchilardan tashkil topadi (R. Sayfullaeva. 2009: 269).

Sanab o‘tilgan ushbu ko‘rsatkichlar turkiy tillar, shuningdek, Oltoy oilasiga mansub deb qaraladigan koreys tiliga oid ishlarda ham qayd etiladi. Xususan, mazkur tilda ko‘makchilar so‘z va qo‘shimchasimon qarishiqlikdan tashkil topishi e‘tiborga olinib “kelishik chastitsalari” sifatida, asos e‘tiboriga ko‘ra, “asliy (sobstvenno) ko‘makchilar” ot, sifat va fe‘l ko‘makchilarga ajratiladi. Ushbu ko‘makchilar koreys tilida ham ot va otlashgan so‘zlardan keyin kelib, ularga vosita, maqsad, sabab, payt, makon kabi ma‘nolarni orttirgan holda bitta gap bo‘lagi vazifasini bajardi va kelishiklar bilan vazifadosh hisoblanadi (III. Назарова. 2021: 490).

Shuningdek, ko‘makchilar ingliz tilidagi “preposition / predlog”lar bilan ham muayyan o‘xshashliklarga ega. Biroq o‘zbek tili morfologik jihatdan agglyutinativ tuzulishli bo‘lgani bois, ushbu lisoniy birliklar “ort vosita” sifatida Hind Yevropa tillaridagi “old vosita”lardan, ya‘ni “preposition / predlog”lardan farqlanadi (A. Сайфуллаев. 2019:11).

Ko‘makchilarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari, ularning o‘zbek va turkiy tillar tizimida tutgan o‘rnini belgilash, alohida turkum sifatida tasniflash, kelib



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

chiqish asoslariga ko‘ra tavsiflash o‘tgan asrning ikkinchi yarimlarida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlardan boshlangan. Xususan, U. Tursunov (У.Турсунов. 1947), A. N. Kononov (А.Н. Кононов. 1951), N.A.Baskakov (Н.А. Баскаков.1952), J.Murataliyev (Ж.М. Мураталиев.1958), N.K.Dmitriyev (Н.К. Дмитриев. 1962), M.I.Xadjilayevlar (М.И.Хаджилаев. 1962), T. Rustamov (Т.Рустамов. 1965) tomonidan chop qilingan manbalar bu borada olib borilgan dastlabki izlanish natijalari e‘lon qilingan.

Ushbu manbalarda ko‘makchilarning genetik jihatdan ot, sifat, ravish va fe‘lning ravishdosh shakllaridan ajralib chiqishi qiyosiy-tarixiy tahlillar asosida dalillangan. Olib borilgan ushbu ilmiy izlanish natijalari mazkur lisoniy birliklarni keyingi tadqiqlari, shuningdek, maktab va oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tiliga oid darslik va qo‘llanmalarida mazkur yordamchi so‘zlarni yoritishda manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

Xususan, o‘zbek tiliga oid darslik va qo‘llanmalarining aksariyatida ko‘makchilar “bog‘lanib kelgan so‘zdan keyin kelib, so‘zlar orasida vosita maqsad, sabab, vaqt, makon kabi turli-tuman munosabatlarni ifodalashi” (Ш. Шоабдурахмонов. 1980: 405; У. Турсунов. 1992: 374); “obyektni obyektga yoki obyektning predikatga bo‘lgan grammatik munosabatini ko‘rsatishi” (R. Sayfullaeva. 2009: 268) kabi sintaktik ko‘rsatkichlardan kelib chiqib izohlanadi. O‘zbek tiliga sistem-struktur tamoyilning tatbiq etilishi munosabati bilan esa formal jihatdan so‘z shakli, vazifasiga ko‘ra kelishik qo‘shimchalari bilan o‘xshash bo‘lgan ushbu nomustaqil birliklarning til tizimida tutgan o‘rnini: leksema va affiks morfemalar oralig‘idagi uchinchi sifatida (R. Sayfullaeva. 2009: 273); leksema shakllar tarkibidagi noparadigmatik morfemalardan tarkib topadigan affiksoid (Ш. Рахматуллаев. 2010: 142); lug‘aviy birlik va affikslardan farqlanuvchi so‘z morfema degan izohlar asosida belgilanishi ham kuzatiladi (А. Хожиев. 2010: 44).

Darhaqiqat, tuzilishiga ko‘ra, so‘z shakli, vazifasiga ko‘ra kelishik qo‘shimchalari bilan mushtarak bo‘lgan sof, vazifadosh va qo‘shimchasimon tiplarga ega bo‘lgan ko‘makchilar til tizimidagi leksema va affiks morfemalar oralig‘ida uchinchi maqomda turuvchi lisoniy “gibrid”lardir. Ushbu lisoniy birliklarni affiksoid yoki so‘z morfema deb yuritish orqali nazarda tutilgan lisoniy maqom ko‘makchi terminida mujasamlangandir.

Ko‘makchilar tuzilishi va lisoniy mohiyatiga ko‘ra sof, vazifadosh va qo‘shimchasimon turlardan tashkil topishidan qat‘iy nazar, ularning kelib chiqish manbai mustaqil so‘zlar ekani barcha manbalarda yakdillik bilan e‘tirof etiladi. T. Rustamovning “Sof ko‘makchilar” nomli risolasida esa ushbu etimologik asos sof

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



ko'makchilarning kelib chiqish manbalari vazifadosh shakllar singari mustaqil so'zlarga (asosan ism guruhiga mansub so'zlarga) borib taqalishi (bilan: *bir+la, -lan* fe'l yasovchi qo'shimchalarning birikishidan, uchun: *uch+un* vosita kelishigining ko'shimchasi birikishidan, kabi: "forma, shakl" ma'nosidagi *kab, keb, kib+i* egalik ko'shimchasining birikishidan) o'zbek tili tarixining XIII-XX asrlariga oid lug'atlar va badiiy manbalarga tayanilgan holda dalillangan.

Adabiyotlar:

1. Sayfullayva R.R, Mengliyev B. R., Boqiyva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili.– T.: "Fan va texnologiya", 2009.
2. Xojiyev A. O'zbek tilida morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari. - T.: "Fan", 2010.
3. Rahimov A. Leksik va semantik derevatsiya muommalari. - T.: "Navro'z". 2011.
4. Rustamov T. Sof ko'makchilar (O'zbek tilida sof ko'makchilarning tarixiy taraqqiyoti). – T.: "Fan", 1991
5. Safarov.Sh. Til nazariyasi va lingvo metodologiya- T.: "Bayoz". 2015.